

**Maktabgacha va Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tilni interfaol
usullar orqali o'rgatish**

Baxshilloyeva Sabrinabonu Azamat qizi

*Samarqand davlat chet tillari instituti ingliz tili II fakulteti
maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til:
ingliz tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: N.N.Zubaydova

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy tilni maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarga o'rgatish va ularning qiziqishini oshirishda til o'rgatishning innovatsion, samarali metodlari haqida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, xorijiy til, metodlar, til o'rganish, pedagog, interfaol usullar

Hozirda mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga katta e'tibor berilmoqda hamda ko'plab imkoniyatlar yaratilgan, bu taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri bo'lib, jamiyat rivojlanishi uchun ahamiyatlidir. Til o'rganish katta yoshdagilarga qaraganda yosh bolalarda ancha oson kechadi. Sababi ular chet tilini tushungan holatda emas, balki mexanik tarzda o'rganishadi. Bolalar til o'rganishni taqlid qilgan holatda atrofdagilardan o'zlashtiradi, shu jumladan o'z ona tillarini ham. Shu sababli bolalarda xorijiy tillarni o'rganish qiyinchilik tug'dirmaydi. Turli yoshdagilarga til o'rgatish jarayoni ham turlicha kechadi, har bir yosh kategoriyasida xorijiy tillarni o'qitishning o'ziga xos metodlari mavjud. Misol uchun, kichik yoshdagilarga til grammatikadan boshlanmaydi, sababi bunda bola zo'riqib qolishi yoki qiziqishini yo'qotishi mumkin. Bu bilan umuman grammatika o'rgatish xato degan tushuncha shakllanmasligi kerak, grammatik ma'lumotlar sodda, qiziqarli, oz-ozdan, bosqichma-bosqich berib borilishi maqsadga muvofiq. Shuning uchun bolalarga ma'lumot qiziqarli, obrazli, hayotiy vaziyatlarga asoslangan holatda olib boriladi. Bunday usul o'ta samarali bo'lib, o'quvchilarning o'rganish jarayonini tezlashtiradi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarni darsga jalg qilishda o'quvchi diqqatini

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o'qituvchiga qaratish o'ta muhim sanaladi. Shu bilan birga dars jarayoni qiziqarli, turli xildagi interfaol o'yinlar, rasmli ko'zgazmalar bilan olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Aks holda, bu yoshdagi bolalarning diqqati tez bo'linishini inobatga olganda pedagogning darsga jalg qilish jarayoni qiyin kechadi, natijada esa bola dars mashg'ulotiga e'tiborsiz bo'lib qoladi. Buning oldini olish uchun esa til o'rganuvchi fanga qiziqtirilishi, uning faolligi, dars mashg'ulotidagi harakati va tirishqoqligi albatta rag'batlantirilishi lozim. Rag'bat o'z navbatida juda ahamiyatli bo'lib, bolaning qiziqishini yanada oshiradi, bunda uning haqqoniy tarzda berilishi ham muhim. Yuqorida keltirib o'tilgan faoliyatlar natijasida bolaning qiziqishi ortib boradi va yangidan-yangi bilimlarni o'zlashtira boshlaydi.

Chet tilini o'rgatishda ta'lim usullaridan foydalanish ham samarali hisoblandi. Bolaning o'rganish usulidan kelib chiqib material berish ham til o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Misol uchun, kinestetik yoki tektayl o'rganish qobiliyati bor bolaga dars davomida xona bo'ylab harakat qilishiga to'sqinlik qilmaslik lozim. Bolaga hayvonlar mavzusi tushuntirilayotganda o'qituvchi tomonidan hayvon shakllari plastilin yoki shu predmetning kichik nusxalari orqali o'rgatilsa ham bo'ladi. Bunda yosh bola uning shakli, rangi, tuzilishini qo'llari va sezgi a'zolari orqali paypaslab, ushlab ko'rib, his qilib yanada yaxshiroq tushunadi hamda xotirasida uzoq muddat saqlandi. Shuning bilan birga mayda matorika ham rivojlanadi, bola nutqi ravon bo'ladi. Shuningdek, yuqoridagi o'rganish uslubiga ega bo'lgan bolaga hayvon chiqaradigan tovushlar qiziqarli tarzda ya'ni obrazli, taqlid qilingan holda yetkazilsa o'rganuvchi uni tezroq esda saqlab qoladi. Bu uslub kichik yoshdagi bolalarda ko'proq samara beradi. Shuningdek, bugungi texnologiyalar taraqqiy etgan davrni inobatga olganda bolaga o'rgatilayotgan narsa-predmetlar 3d yoki 4d shaklda namoyish etilsa, bola o'zini ayni jarayon markazida his qiladi, yanada bilim olishga intiladi.

Bolaga til o'rgatayotganda unga shu tildagi video materiallar, multseriallar, hikoya va ertaklar, quvnoq qo'shiqlar, qiziqarli o'yinlarni taqdim etish ta'lim samaradorligini, bolaning til o'rganish jarayonini tezlashtiradi. Axborotni multimediali vositalar orqali yetkazish va interfaol o'yinlarni dars jarayonida

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qo'llash hozirgi rivojlanib borayotgan zamon talabidir. Til o'qitishda pedagog doimiy ravishda an'anaviy usullardan foydalanishi vaqt o'tgan sari yosh bola uchun zerikarli bo'lishi mumkin, buning o'rniga zamonaviy, turlicha metodlardan foydalanish maqsadga erishishda samara beradi. Bunda ta'lim beriluvchining yoshi, qiziqishlari, imkoniyati, ruhiy va aqliy holatlarini inobatga olib, e'tibor qaratish muhimdir. Masalan, kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilarga ta'lim berishning dastlabki yillarida harakatchan, faollikka chaqiruvchi, rang-barang o'yinlar orqali dars mashg'ulotlarini o'tish maqsadga muvofiq. Bu yoshdagi til o'rganuvchilariga grammatik qoidalar, turli xil yozma turdagи mashqlar bajarish zerikarli va murakkab bo'lishi muhim. Shu sababli ham til o'rgatuvchi har bir bolaning o'z qiziqish va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda dars mashg'ulotini olib borishi kerak. Bolalarning individual, psixologik, aqliy jihatdan biri boshqasidan farq qilishini inobatga olganda pedagog har bir tarbiyalanuvchiga o'ziga xos, uning ichki imkoniyatlarini to'laqonli ochib, yuzaga chiqaradigan, qobilyatlarini namoyon qiladigan o'qitish metodlaridan foydalanishi o'rinnlidir.

Birgalikda juft yoki guruh bo'lib ishlash, o'zaro muloqot qilish sinfonada juda muhim.

Nemis va shved tillaridan boshlang'ich, o'rtal ma'ktabda dars beradigan finlandiyalik o'qituvchi Heini Syrilaning ta'kidlashicha lego o'yini orqali ma'lum tilda so'z tartibi va ketma-ketligini o'rgatish mumkin. Bu tektayl mashqlardan biri bo'lib o'rganuvchilar lego donachalarini ketma-ketlikda joylashtirish orqali tengdoshi bilan birga sodda gaplar tuzadi, shuningdek baland ovozda talaffuz qiladi va tarjima qiladi. Bolalar ilk davrlaridan faol o'rganuvchilarga kiradilar. Ularda kuzatuvchanlik, hamma narsaga qiziqish yuqori darajada bo'ladi, sababi ular dunyonи shu tariqa o'rganishga harakat qilishadi. Bolalar o'ynayotganda o'zini juda xursand va baxtli his qiladi. Shuning uchun odatda pedagoglar o'yinni ta'lim berishdagi asosiy predmet sifatida ko'rishadi. Ma'lum o'yinlar yosh bolalarda alifbo, ranglar, raqamlar va boshqalarni o'rganishda rag'bat uyg'otadi, harakatga undaydi. Bunday vaziyatda bola kamdan kam hollarda zerikadi. Har jihatdan qamrab olingan yosh til o'rganuvchi doim aqliy jihatdan bilimdon bo'lib qolmay, mustaqil, ijodkor

hamda yaratuvchan ham bo'lishi talab etiladi. [7]

Xulosa qilib aytganda maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarni interfaol usullar orqali o'qitish ancha samarali bo'lib, pedagog uchun ham o'quvchi uchun ham ta'lif berish jarayonini osonlashtiradi hamda mashg'ulotlarni qiziqarli, bola diqqatini tortadigan, xotirada yaxshi saqlanadigan tarzda olib borishga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mustafoyeva S.S "Chet tillarini o'rganish va o'qitish: bolalar tilarni qanday o'rganadi?".
- 2.Raxmonova N.R, Xolboyeva D.G', Abduraxmonova G.M "Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'qitish metodikasi".
- 3.Qurbanaliyeva N "Boshlang'ich sinfda ingliz tilini o'qitishning innovatsion usullari".
- 4.Yuldasheva F.E "Logopedik mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish". – T.: "Turon-iqbol", 2019 .
5. <https://cyberleninka.ru>
6. <https://teachertrainingmumbai.com>
7. <https://eurokidsindia.com>